Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Xajviy-yumoristik diskurs

Iroda Askarova*

O’zbekiston Milliy Universiteti

✉ askarovairoda69@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hajviy-yumoristik diskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslik va diskurs nazariyasi nuqtayi nazaridan yoritiladi hamda misollar bilan tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar

Hajviy-yumoristik diskurs, yumor lingvistikasi, affektiv holat, Karnaval nazariyasi, ekstralingvistik omillar.

DOI: 10.5281/zenodo.23278474

Asosiy matn: Zamonaviy tilshunoslikda ro‘y bergan antroposentrik burilish tadqiqot vektorini til tizimining immanent qurilishidan uni yaratuvchi, qo‘llovchi hamda talqin etuvchi lisoniy shaxs sohasiga yo‘naltirdi [17]. Ilmiy paradigmaning bunday almashinuvi o‘laroq uzoq muddat estetika, poetika va folklorshunoslik ixtisosligi doirasida talqin qilinib kelingan komizm kategoriyasi avtonom lingvistik obyekt maqomini qo‘lga kiritdi. Shu bilan birga hajviy matnning ichki tuzilmasi, uning perlokutiv ta’sir mexanizmi, til sathlarining kulgi hosil qilish potensiali, shuningdek kommunikantlar o‘rtasida yuzaga keladigan so‘z o‘yinlari pragmatika, kognitiv tilshunoslik, uslubshunoslik va diskurs tahlili kesishgan metodologik maydonda tadqiqotga tortilmoqda. Hajviy-yumoristik diskurs tushunchasi ham xuddi shu nazariy izlanishlar zaminida qaror topib, lingvistikaning fundamental kategoriyalari qatoridan mustahkam o‘rin egalladi.

Kulgining lingvistik tadqiqi sof nazariy qiziqish chegaralaridan ancha keng ilmiy mazmun kasb etadi. Zotan, hazil matni ma’no doirasining o‘zgaruvchanligini, shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlikni hamda kontekstning talqinni yo‘naltirish salohiyatini ayniqsa ravshan namoyon etadi [4]; komik samarani yuzaga keltiruvchi mexanizm esa til sohiblarining semantik bilimi, pragmatik tajribasi va kommunikativ kutilmalariga tayangan holda shakllanadi. Muammoning fanlararo qamrovi pragmatika bilan kognitiv semantika, uslubshunoslik bilan lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik bilan psixolingvistika chegarasidagi nazariy aloqalarni faollashtiradi.

Yumor lingvistikasining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanganini uning institutsional asoslari ham tasdiqlaydi: bu sohada xalqaro ilmiy jamiyat faoliyat yuritadi, ixtisoslashgan nashr esa tadqiqotlarning nazariy va amaliy rivojini muntazam yoritib boradi [5], fundamental qo‘llanmalar chop etilgan [6].

Diskursning janriy tabiatini sharhlashdan avval komiklikning falsafiy-estetik talqini bosib o‘tgan tarixiy yo‘lga murojaat qilamiz, negaki zamonaviy lingvistik nazariyalarning o‘zak tamoyillari ko‘p asrlik estetik tafakkur bilan uzviy tutashgan. Kulgili hodisa haqidagi dastlabki tizimli qarashni Aristotel ta’limotida kuzatamiz: mutafakkir komediyani odatiy mezondan quyi turuvchi kishilarga taqlid deb baholab, kulgililik manbaini o‘zgaga azob yetkazmaydigan va halokatli oqibat tug‘dirmaydigan xato yoxud nuqson bilan bog‘laydi [9]. Bu talqinda keyingi nazariy izlanishlarga tayanch bo‘lgan ikki asosiy belgi – me’yordan chekinish hamda idrok etuvchi subyekt uchun xavfsizlik sharti yaxlit holda mujassamdir.

Yangi davr falsafasida kulgi hodisasi subyekt idrokida yuzaga keladigan ichki ziddiyat bilan izohlana boshladi. Xususan, I.Kant uni tarang tus olgan vaziyatning kutilmaganda barham topishi oqibatida paydo bo‘ladigan affektiv holat deb talqin etadi [12]; bu qarash keyinchalik nomuvofiqlik nazariyasining nazariy o‘zagiga aylandi. Yondashuv nuqtayi nazaridan komik ta’sir kutilgan bilan yuz bergan holat orasidagi qarama-qarshilikning kutilmagan, biroq zarar keltirmaydigan yechimidan hosil bo‘ladi. A.Bergson esa kulgining ijtimoiy mohiyatini tirik va moslashuvchan faoliyatga singib qolgan mexaniklikni jamoaviy ravishda tartibga soluvchi vosita tarzida izohlaydi. Uning talqinida xatti-harakatdagi avtomatlashuv hamda vaziyatga moslashish salohiyatining pasayishi kulgi vositasida jamoaviy baholash obyektiga aylanadi[12].

Nomuvofiqlik tamoyili psixologik yondashuvlarda yanada nazariy tus oldi. J.Suls taklif etgan ikki bosqichli modelga ko‘ra, hazilni anglash dastlab kutilmaning izdan chiqqanini idrok etish bilan boshlanadi; undan keyin tinglovchi yashirin mantiqiy bog‘lanishni tiklab, paydo bo‘lgan ziddiyatni izohlaydi. Komik samara esa nomuvofiqlikning shu tarzda yechim topishi jarayonida yuzaga chiqadi [8]. Sxema kalambur tabiatiga bevosita mos tushadi, negaki unda kutilmaning izdan chiqishi ham, semantik yechim ham yagona lisoniy shaklda jamlanadi. Keyingi tadqiqotlarda jarayon idrok tezligi va qayta o‘qish samarasi singari ko‘rsatkichlar bilan boyitildi [1].

M.Baxtinning karnaval konsepsiyasi komiklikni madaniy tizim miqyosida talqin etadi. Olim nazarida xalqona kulgi madaniyati rasmiy jiddiylik bilan yonma-yon yashovchi yaxlit olam bo‘lib, voqelikning barcha qatlamlariga, shu jumladan kuluvchi subyektning o‘ziga ham yo‘naladi. Ayni chog‘da unda inkor va yangilanish bir-birini to‘ldiradi va natijada ambivalent mazmun kasb etadi [11]. Karnaval muhitiga xos so‘z erkinligi, rasmiy nutq me’yorlarining muvaqqat zaiflashuvi, erkin muomala tamoyili hamda maqtov bilan istehzoning o‘zaro qorishuvi so‘z o‘yinining madaniy manbalarini teranroq anglashga yordam beradi.

Karnaval nazariyasining ta’siri ostida rus filologiyasida «kulgi olami» tushunchasi shakllandi. D.Lixachyov va A.Panchenko qadimgi kulgi madaniyatini rasmiy voqelikning teskari modeli, ya’ni o‘z ichki qonuniyatlari asosida amal qiluvchi antiolam sifatida tavsiflab, komiklik tasodifiy hodisalar yig‘indisi emas, balki tartibli madaniy tizim ekanini nazariy jihatdan asosladilar [18]. Yondashuv diskurs tushunchasi ilmiy muomalada keng tarqalishidan ancha ilgariyoq komiklikni tizimli hodisa deb talqin etish uchun nazariy zamin shakllanib ulgurganligining aniq dalilidir.

N.Arutyunova diskursni pragmatik, ijtimoiy-madaniy hamda psixologik omillar bilan birgalikda olingan bog‘lanishli matn, ya’ni «hayotga singdirilgan nutq» deb ta’riflaydi [10]. Shunday yondashuvga muvofiq, hajviy-yumoristik diskurs alohida matnlar majmui bilangina cheklanmaydi; uning tarkibiga matnning yaratilish va idrok etilish sharoiti, kommunikativ niyat, ishtirokchilar munosabati, janriy me’yor va talqin qoidalari ham kiritiladi. Shunday ekan, tadqiqotimiz doirasida diskursni matn hamda uning mazmuniy talqinini belgilovchi ekstralingvistik omillar yaxlitligi sifatida tushunuvchi yondashuvga tayanamiz [16].

Kognitiv talqin diskursning mental tuzilmalar bilan uzviy aloqasini ochib beradi. T.van Deyk qarashlarida diskursni tushunish freym, ssenariy va vaziyat modeli singari kognitiv konstruksiyalarsiz amalga oshmaydi [13]. Hajviy-yumoristik muloqotda bu qoida alohida faollik kasb etadi, chunki adresat matnda to‘qnashtirilgan mental tuzilmalarni tiklab, ular orasidagi ziddiyatni anglagandagina komik ma’no yuzaga chiqadi [1]. Hazilni adekvat talqin etish uchun zarur bo‘lgan madaniy kodlar hamda vaziyatga doir fon bilimlarining yetishmasligi komik mazmunning kognitiv qayta ishlanishini izdan chiqaradi va uning mo‘ljallangan perlokutiv ta’sirini sezilarli darajada zaiflashtiradi. Shundan kelib chiqib, auditoriyaning mushtarak bilim zaxirasi hajviy-yumoristik diskursning konstitutiv shartlaridan biri o‘laroq belgilanadi.

V.Karasik diskursni shaxsga yo‘naltirilgan hamda institutsional turlarga tasniflar ekan, yumoristik muloqotni shaxslararo kommunikatsiyaning o‘yin tamoyiliga asoslangan alohida tonallik ko‘rinishi deb talqin etadi [16]. Bunda ishtirokchilarning muloqotni jiddiy rejimdan o‘yin rejimiga ko‘chirishga o‘zaro tayyorligi hamda kulgi vositasida kommunikativ masofani qisqartirish niyati yetakchi o‘rin tutadi [3].

Tadqiqotda qo‘llanayotgan «hajviy-yumoristik» qo‘shma atamasining mazmun chegarasi ham aniqlashtirilishi lozim bo‘lgan masaladir. O‘zbek filologik an’anasida hajv illatlarni fosh etishga yo‘naltirilgan tanqidiy kulgini, yumor esa nisbatan yumshoq, murosaviy komik munosabatni bildiradi [19]. Ular qat’iy ajralgan hodisalar emas, umumiy baholash shkalasining ikki qutbi bo‘lib, oraliq hududda ironiya, sarkazm

va hazil-mutoyibaning turli ko‘rinishlari joylashadi. Shkalaning beozor mutoyibadan keskin satiragacha cho‘zilgan barcha qismlarida kalambur voqelana oladi [7]. Shuning uchun tadqiqot obyektini sof yumoristik yoxud sof satirik diskurs doirasi bilan cheklash materialning funksional tabiatini to‘liq aks ettirmaydi.

Komiklik usullarini tizimlashtirishda B.Dzemidokning deformatsiya, kutilmaganlik, nomutanosiblik va alogizmga tayangan tasnifi nazariy jihatdan qimmatlidir; olim yumor bilan satirani baholovchi munosabat xususiyatiga ko‘ra farqlaydi [14]. Tasnifda til o‘yini mustaqil usul sifatida ajratilmaydi, negaki u sanalgan mexanizmlarning bir nechtasini bir vaqtda yuzaga chiqarishga qodir: kalambur so‘z shaklini deformatsiyalaydi, semantik munosabatda alogizm hosil qiladi, kutilmani buzadi. So‘z o‘yinining shu kesishuvchi tabiati uning komiklik usullari tizimida ko‘ndalang vosita maqomida amal qilishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Attardo S., Raskin V. Script theory revis(it)ed: joke similarity and joke representation model // Humor: International Journal of Humor Research. – 1991. – Vol. 4, № 3–4. – P. 293–347.

[2] Attardo S. Linguistic Theories of Humor. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1994. – 426 p.

[3] Bateson G. A Theory of Play and Fantasy // Bateson G. Steps to an Ecology of Mind. – New York: Ballantine Books, 1972. – P. 177–193.

[4] Chiaro D. The Language of Jokes: Analysing Verbal Play. – London; New York: Routledge, 1992. – 129 p.

[5] International Society for Humor Studies: official website. – URL: https://www.humorstudies.org/ (murojaat sanasi: 06.08.2026); HUMOR: International Journal of Humor Research. – Berlin; Boston: De Gruyter. – URL: https://www.degruyter.com/journal/key/humr/html

[6] Raskin V. (ed.). The Primer of Humor Research. – Berlin ; New York : Mouton de Gruyter, 2008. – 673 p.

[7] Redfern W. Puns. – Oxford: Basil Blackwell, 1984. – 234 p

[8] Suls J.M. A Two-Stage Model for the Appreciation of Jokes and Cartoons: An Information-Processing Analysis // The Psychology of Humor / ed. by J.H. Goldstein, P.E. McGhee. – New York: Academic Press, 1972. – P. 81–100.

[9] Аристотель. Поэтика // Аристотель. Сочинения: в 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983. – С. 645–680.

[10] Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 136–137.

[11] Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1990. – 543 с.

[12] Бергсон А. Смех. – М.: Искусство, 1992. – 127 с.

[13] Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – 312 с.

[14] Дземидок Б. О комическом. – М.: Прогресс, 1974. – 223 с.

[15] Кант И. Критика способности суждения. – М.: Искусство, 1994. – 367 с.

[16] Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

[17] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 261 с.

[18] Лихачёв Д.С., Панченко А.М. «Смеховой мир» Древней Руси. – Л.: Наука, 1976. – 204 с.

[19] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400 б.